SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ATOYEV DILSHOD DILMURODOVICH

INTEGRO – DIFFERENSIAL ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASI UCHUN NOLOKAL TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

UDK: 517.958

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ATOYEV DILSHOD DILMURODOVICH

INTEGRO – DIFFERENSIAL ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASI UCHUN NOLOKAL TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/FM863 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.samdu.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘iga http://www.ziyonet.uz/ joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ishankulov Tolib** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Safarov Jo‘rabek Shakarovich fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “ __ ” __ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (+99866) 231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38, e–mail: patent@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (+99866) 231–06–32, faks: (+99866) 235–19–38, e–mail: patent@samdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “__ ” ____ kuni tarqatildi.

(2025 yil “ ___ ” _____dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Soliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlar doktori, professor

A.M. Xalxo’jayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori

A.B. Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar xususiy hosilali differensial va integro-differensial tenglamalar, ular uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalarni o‘rganishga olib kelinadi. Teskari masalalar issiqlik fizikasiga, kvant mexanikasi va optika sohasiga, tibbiyotga, kompyuter grafikasi va sun’iy intellektga, shu bilan birga zamonaviy ilm-fanning barcha sohalariga kirib bordi. Matematik fizikada to‘g‘ri masalalarning yechimini topish uchun tenglama koeffitsiyentlarini, soha chegarasini, boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni berish lozim. Ammo amaliyotda, tenglama koeffitsiyentlarini har doim berib bo‘lmaydi, bundan tashqari masalaning yechimi nafaqat boshlang‘ich va chegaraviy shartlarga balki muhitning ichidagi boshqa ba’zi bir xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunday holda, masalani yechish integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamalari uchun nolokal teskari masalalarni tadqiq etishga olib kelinadi. Bunday masalalarni yechish to‘la o‘rganilmaganligi bois, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda matematik fizikaning jadal suratlarda rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamalari va ularga qo‘yilgan teskari masalalar bilan modellashtiriladigan jarayonlarni tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda nolokal boshlang‘ich-chegaraviy shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlashga oid tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shuningdek, issiqlik tarqalish jarayonlarini boshqarish hamda issiqlikning butun muhit bo‘ylab teng taqsimlanishini ta’minlash muhimdir, bu jarayonlar esa nolokal shartli issiqlik tarqalish tenglamasi yordamida modellashtiriladi. Shuning uchun nolokal boshlang‘ich-chegaraviy shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalarning korrektligini o‘rganishga oid tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda amaliy va fundamental fanlar orqali ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlar yuzasidan keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda, xususan nolokal shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalar yechimi mavjudligi hamda yagonaligini isbotlash va olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik tizimlar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi” [1] fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda o‘ng

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son qarori.

tomoni oʻrama koʻrinishdagi issiqlik tarqalish tenglamalari uchun nolokal teskari masalalarning korrektlilik shartlarini topish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida"gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli "2022-2026- yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "Oʻzbekiston–2030" strategiyasi toʻgʻrisidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Oʻzbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Matematik fizikaning teskari masalalari nazariyasini rivojlantirishga M.M. Lavrentev, A.S. Alekseev, A.L. Bukhgeim, N.Ya. Beznoshchenko, A.I. Prilepko, V.G. Romanov, A. Lorenzi, J. Janno, G.V. Dyatlov, A. Favaron, H. Grabmueller va boshqalar oʻz hissalarini qoʻshganlar. Parabolik tipdagi tenglamalar uchun teskari masalalar A.L. Bukhgeim, J. Janno, L.v. Wolfersdorf, V.G. Romanov, F. Colombo, A.I. Prilepko, A.D. Iskenderov, M. Grasselli, V.A. Dedok, N.Ya. Beznoshchenko, A. Boumenir, O. Danilkina, M.E. Gurtin, M.I. Ivanchov, A.C. Pipkin L. Yang va J. Jannolar tomonidan qoʻyilgan va tadqiq qilingan. Parabolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni tadqiq etishning turli usullari A. Lorenzi, D. Lesnic, F. Colombo, M. Grasselli, K. Karuppiah, D.Q. Durdiyev, J.J. Jumaev va boshqalarning ishlarida taklif etilgan va rivojlantirilgan. Nolokal shartli xususiy hosilali differensial tenglamalarni oʻrganishning turli usullari D.G. Gordeziani, G.A. Avalishvili, E.I. Azizbayov, Y.T. Mehraliyev, S.V. Kirichenko, D. Lesnic, M.I. Ismailov, F. Kanca va boshqalarning ishlarida tadqiq qilingan.

Jumladan, E.I. Azizbayov va Y.T. Mehraliyevlarning[2] ishlarida ikkinchi tartibli parabolik tipdagi nolokal boshlangʻich shartli tenglama uchun koeffitsiyentni aniqlashning teskari masalasi tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqot ishida qoʻyilgan masalaga nisbatan ekvivalent masala olinib, ekvivalent masala yechimining mavjudligi va yagonaligi qisqartirib akslantirishlar prinsipi yordamida isbotlangan. M.S. Hussein, D. Lesnic, M.I. Ismailovlarning[3] maqolasida bir oʻlchamli issiqlik

---

[2]E.I. Azizboyev, Y.T. Mehraliyev, Solvability of nonlocal inverse boundary-value problem for second order parabolic equation with integral condition, Electronic journal of differential eqautions, no. 125,1-14, 2017.

[3] M.S. Hussein, D. Lesnic va M.I. Ismailov, An inverse problem of finding the time-dependent diffusion coefficient from an integral condition, Mathematical Methods in the Applied Sciences, 39 (5), 963-980, 2015.

tarqalish tenglamasidan nolokal qo‘shimcha shart orqali koeffitsiyentni aniqlashning teskari masalasi tadqiq qilingan. Dastlab, masala klassik yechimining mavjudligi, yagonaligi va yechimning berilganlarga nisbatan uzluksiz bog‘liqligi ko‘rsatilgan. So‘ngra tenglama koeffitsiyentlarini aniqlashning analitik va sonli usullari taklif etilgan. D.Q. Durdiyev, J.J. Jumayev[4] o‘z tadqiqot ishlarida bir o‘lchamli integro-differensial issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasidan yadroni aniqlashning teskari masalalari tadqiq qilgan va yechimning mavjudligi, yagonaligi isbotlangan.

Ushbu dissertatsiya ishida integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich va Dirixle chegaraviy shartli, shuningdek, nolokal boshlang‘ich va nolokal chegaraviy shartlar bilan to‘g‘ri va teskari masalalar o‘rganilgan.

Dissertatsiya ishi E.I. Azizbayov, Y.T. Mehraliyev, M.S. Hussein, D. Lesnic, M.I. Ismailov, D.Q. Durdiyev va J.J. Jumayevlarning ilmiy tadqiqotlariga yaqin bo‘lib, masalalarni tadqiq etishda ular tomonidan tavsiya etilgan usullardan foydalanilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan M-02.2018 “Matematik-fizikaning teskari masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. Integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich va nolokal chegaraviy masalalardan yadroni aniqlash usullarni qurish va bu teskari masalalar yechimlarining mavjudligi, yagonaligini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chegaralangan sohada integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo‘yilgan nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining mavjud va yagonaligi haqidagi yetarlilik shartlarini topish;

integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun integral had qatnashgan nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masala klassik yechimining lokal mavjud va yagonalik shartlari o‘zgarmas koeffitsiyentlarga bog‘liq ravishda isbotlash;

integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich-chegaraviy, integral ko‘rinishdagi qo‘shimcha shartli masaladan vaqtga bog‘liq yadroni aniqlashning teskari masalasining lokal bir qiymatli yechiluvchanligini isbotlash;

nolokal boshlang‘ich va nolokal chegaraviy shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan yadroni aniqlash teskari masalaning bir qiymatli yechiluvchanligini, yechimining global mavjudligi va yagonaligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti ikkinchi tartibli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamalardan iborat.

[4] D.K. Durdiev, J.J. Jumaev, One-dimensional inverse problems of finding the kernel of integro-differential heat equation in a boundedd domain, Ukrain. Math. J., 73(3), 1723-1740, 2021.

Tadqiqotning predmeti nolokal shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalar.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida integral tenglamalar va integral tengsizliklar nazariyasi, shuningdek, Volterra-Fredgolm tipidagi chiziqli bo‘lmagan integral tenglamalar sistemasini yechish, funksional analiz metodlaridan xususan, Furye metodi, Shauder prinsipi va Banax teoremasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chegaralangan sohada integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo‘yilgan nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining mavjud va yagonaligi haqidagi yetarlilik shartlari topilgan;

integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun integral had qatnashgan nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masala klassik yechimining lokal mavjud va yagonalik shartlari o‘zgarmas koeffitsiyentlarga bog‘liq ravishda isbotlangan;

integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich-chegaraviy, integral ko‘rinishdagi qo‘shimcha shartli masaladan vaqtga bog‘liq yadroni aniqlashning teskari masalasining lokal bir qiymatli yechiluvchanligi isbotlangan;

nolokal boshlang‘ich va nolokal chegaraviy shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan yadroni aniqlash teskari masalaning bir qiymatli yechilishi, yechimining global mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

parabolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun yadroni aniqlash nolokal teskari masalasining bir qiymatli yechiluvchanligi isbotlangan;

chegaralangan sohada issiqlik tarqalish tenglamalari uchun o‘rtacha haroratni kiritish orqali xotira funksiyasining mavjudlik va yagonalik shartlari topilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotdagi natijalar va matematik isbotlar funksional analiz, differensial va integral tenglamalar nazariyasi, teskari masalalar nazariyasi, Furye usuli, matematik analiz usullari qo‘llanilganligi, hamda, integral tengsizliklar nazariyasi va matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matematik fizikaning integro-differensial tenglamalar uchun nolokal teskari masalalar nazariyasini yanada rivojlantirishi, yadroni aniqlash usullari qurilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati seysmologiyada, neft va gaz konlarini qidirishda, issiqlik tarqatuvchi xotirali muhitlarda issiqlik tarqalish jarayonlarini tekshirishda tatbiq etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal teskari masalalarga oid olingan ilmiy natijalaridan:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida IL-21071166 (2022-2024 yy.) “Shamolning past tezligi uchun mo‘ljallangan vertikal o‘qli shamol turbinasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (2024 yil 17-dekabrdagi 1563-3-son ma’lumotnomasi). Jumladan, dissertatsiya ishida parabolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun yadroni aniqlash nolokal teskari masalalarining bir qiymatli yechiluvchanligi isbotlangan. Ushbu natijalardan loyihada shamol turbinalarining samarali ishlashi maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarining korrektligini tekshirishda foydalanilgan;

№122041100096-4. “Sotsiologiyada, geofizikada va muhandislik fanlarida matematik modellashtirish” mavzusidagi xorijiy fundamental loyihada teskari masalalarni tadqiq etishning taklif etilgan usuli qo‘llanilgan, qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasidan o‘rama ko‘rinishidagi yadroni aniqlash teskari masalalarida foydalanilgan (Южный Математический Институт филиал ФГНБУ ФНЦ “Владикавказский научный центр РАН”, 2024 yil 2-dekabr 141-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilganligi qovushqoq-elastiklik tenglamalar sistemasidan nolokal shartlar yordamida o‘rama ko‘rinishidagi yadroni aniqlash va teskari masala yechimining mavjudlik va yagonaligini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatida 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 98 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Integral hadli nolokal boshlang‘ich-chegaraviy shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masala”** deb nomlangan bo‘lib, integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal shartli to‘g‘ri va teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligi o‘rganilgan. Bu bobning birinchi paragrafida dissertatsiya ishida foydalanilgan funksional analiz va matematik fizika tenglamalarining ayrim asosiy tushuncha va ta’riflari keltirilgan. Birinchi bobning ikkinchi paragrafda integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun integral hadli nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi o‘rganilgan.

Quyidagi integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasini

$$u_t - u_{xx} = \int_0^t k\,(t-\tau)u(x,\tau)d\tau, \quad (x,t) \in D_T, \qquad (1)$$

nolokal boshlang‘ich va chegaraviy shartlar

$$u(x,0) + \delta u(x,T) + \int_0^T p\,(\tau)u(x,\tau)d\tau = \varphi(x), \;\; x \in [0,l], \qquad (2)$$

$$u|_{x=0} = u|_{x=l} = 0, \;\; t \in [0,T], \qquad (3)$$

bilan qaraymiz. (1)-(3) masaladan $u(x,t)$ funksiyani aniqlaymiz: bu yerda $D_T = \{(x,t): 0 < x < l, 0 < t \le T\}\,(T > 0,\; l > 0$ o‘zgarmas sonlar), $\delta \ge 0$, $\varphi(x)$, $p(t)(p(t) > 0)$lar berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

(1)-(3) masalani qanoatlantiruvchi $u(x,t) \in C^{2,1}(D_T) \cap C(\overline{D}_T)$ funksiyani topish masalasiga to‘g‘ri masala deyiladi.

(1)-(3) masala yechimi quyidagi integral tenglamani qanoatlantiradi:

$$u(x,t) = \Phi(x,t) + \int_0^t \int_0^l G\,(x,\xi,t-\beta) \int_0^\beta k\,(\beta-\tau)u(\xi,\tau)d\tau d\xi d\beta -$$
$$-\delta \int_0^T \int_0^l G_0\,(x,\xi,t+T-\beta) \int_0^\beta k\,(\beta-\tau)u(\xi,\tau)d\tau d\xi d\beta -$$
$$-\int_0^T \int_0^\mu \int_0^l p\,(\mu)G_0(x,\xi,t+\mu-\beta) \int_0^\beta k\,(\beta-\tau)u(\xi,\tau)d\tau d\xi d\beta d\mu, \qquad (4)$$

bu yerda

$$\Phi(x,t) = \int_0^l \varphi\,(\xi)G_0(x,\xi,t)d\xi,$$

$$G(x,\xi,t) = \frac{2}{l}\sum_{n=1}^{\infty} e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t} sin\frac{\pi n\xi}{l} sin\frac{\pi n x}{l},$$

$$G_0(x,\xi,t) = \frac{2}{l}\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{1+\delta e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 T} + \int_0^T p\,(\tau)e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 \tau} d\tau} e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t} sin\frac{\pi n\xi}{l} sin\frac{\pi n x}{l}.$$

Banax prinsipidan foydalanib, (4) Volterra-Fredgolm integral tenglamasi yechimi mavjud va yagonaligi ko‘rsatilgan. Buning uchun quyidagi lemma o‘rinli:

1-lemma. *Faraz qilaylik,* $\varphi(x) \in C[0,l]$, $\varphi'(x) \in L_2(0,l)$, $\{p(t),k(t)\} \in C[0,T]$, $p(t) > 0$, $\varphi(0) = \varphi(l) = 0$ *bo‘lsin. U holda* $0 < T \le T_1$ *larda (4) integral tenglamaning* $u(x,t) \in C^{2,1}(D_T) \cap C(\overline{D}_T)$ *sinfda aniqlangan yagona yechimi mavjud, bu yerda* T_1 *ushbu* $p_0 k_0 T^3 + 3(1+\delta)k_0 T^2 - 3 = 0$ *tenglamaning musbat ildizi va* $k_0 = \max_{t\in[0,T]}|k(t)|$, $p_0 = \max_{t\in[0,T]}|p(t)|$.

Uchinchi paragrafda (1)-(3) masala va

$$u(x_0,t) = h(t), \quad x_0 \in (0,l) \qquad (5)$$

qo‘shimcha shart yordamida $u(x,t)$, $k(t)$ funksiyalarni aniqlash teskari masalasi qaraladi. Bu yerda $h(t)$ yetarlicha silliq funksiya.

1-teorema. *Faraz qilaylik, ushbu shartlar bajarilsin:* $\varphi(x)\in C^4[0,l]$, $p(t)\in C[0,T]$, $p(t)>0$, $h(t)\in C^2[0,T]$, $\varphi(0)=\varphi(l)=\varphi''(0)=\varphi''(l)=0$, $h(0)\neq 0$, $\delta\geq 0$. *U holda shunday yetarlicha kichik* $T^*\in(0,T)$ *son topilib, (1)-(3), (5) teskari masalaning* $u(x,t)\in C^{4,1}(D_{T^*})\cap C(\overline{D}_{T^*})$ *va* $k(t)\in C[0;T^*]$ *yagona yechimi mavjud, bu yerda* $D_{T^*}=\{(x,t)|x\in(0,l),t\in(0,T^*]\}$.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal to‘g‘ri va teskari masalalar**” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi paragrafida integro-differensial parabolik tipdagi tenglama uchun nolokal boshlang‘ich chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi tadqiq qilingan.

Ushbu

$$u_t-u_{xx}=\int_0^t k\,(t-\tau)u(x,\tau)d\tau,\quad (x,t)\in D_T, \tag{6}$$

$$u(x,0)+\delta u(x,T)=\varphi(x),\;\; x\in[0,l], \tag{7}$$

$$u|_{x=0}=u|_{x=l}=0,\;\; t\in[0,T],\quad \varphi(0)=\varphi(l)=0, \tag{8}$$

masaladan $u(x,t)$ funksiyani aniqlashni qaraymiz, bu yerda $\delta\geq 0$ berilgan son, $\varphi(x)$ va $k(t)$ berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

1-ta’rif. *Agar* $u(x,t)$ *funksiya*

1. D_T *sohada* $u(x,t)$ *funksiya va uning hosilalari* u_t,u_x,u_{xx} *uzluksiz bo‘lsin;*
2. *(6) tenglama va (7), (8) shartlarni klassik ma’noda qanoatlantirsin*

u holda bu funksiya (6)-(8) masalaning klassik yechimi deyiladi.

(6)-(8) masalaning yechimini

$$u(x,t)=\sum_{n=1}^{\infty}X_n\,(x)u_n(t) \tag{9}$$

ko‘rinishda izlaymiz, bu yerda $X_n(x)=\sqrt{\frac{2}{l}}\sin\lambda_n x$, $\lambda_n=\frac{\pi n}{l}$, $n=1,2,3,...$

(6) va (7) tengliklarni $X_n(x)$ ga ko‘paytirib $(0,l)$ da integrallab quyidagi masalani olamiz.

$$u'_n(t)+\lambda_n^2u_n(t)=\int_0^t k\,(t-\alpha)u_n(\alpha)d\alpha, \tag{10}$$

$$u_n(0)+\delta u_n(T)=\varphi_n,\quad n=1,2,\ldots, \tag{11}$$

bu yerda $\varphi_n=\sqrt{\frac{2}{l}}\int_0^l\varphi\,(x)\sin\lambda_n xdx$.

Har bir tayinlangan $n\in\mathbb{N}$ da (10)-(11) masalaning yechimi quyidagi Volterra-Fredgolm integral tenglamasiga olib kelinadi

$$u_n(t)=\frac{e^{-\lambda_n^2t}}{\psi_n(T)}\varphi_n-\frac{\delta e^{-\lambda_n^2t}}{\psi_n(T)}\int_0^T e^{-\lambda_n^2(T-\tau)}\int_0^\tau k\,(\tau-\alpha)u_n(\alpha)d\alpha d\tau+$$

$$+ e^{-\lambda_n^2 t}\int_0^{t} e^{\lambda_n^2 \tau}\int_0^{\tau} k\,(\tau-\alpha)u_n(\alpha)d\alpha d\tau, \qquad (12)$$

bu yerda

$$\psi_n(T) := 1 + \delta e^{-\lambda_n^2 T}.$$

2-lemma. *Ixtiyoriy* $0 < t \le T$ *da quyidagi tengsizliklar o'rinli:*

$$|u_n(t)| \le C_1 e^{-\lambda_n^2 t}|\varphi_n|, \qquad t \in [0,T],$$

$$|u'_n(t)| \le C_1 e^{-\lambda_n^2 t}|\varphi_n|(\lambda_n^2 + T \parallel k \parallel),$$

bu yerda $0 < t \le T$, $\|k\| = \max\limits_{t\in[0,T]}|k(t)|$, $C_1(\|k\|, T, \delta)$.

2-teorema. *Faraz qilaylik,* $\varphi(x) \in C[0,l]$, $\varphi'(x) \in L_2(0,l)$, $k(t) \in C[0,T]$, $\varphi(0) = \varphi(l) = 0$ *shartlar bajarilsin. U holda*

$$\frac{\delta\|k\|T^2}{2}\left(1 + \|k\|e^{\frac{\|k\|T^2}{2}}\right) < 1$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi T *lar uchun (6)-(8) to'g'ri masalaning* $u(x,t) \in C^{2,1}(D_T) \cap C(\overline{D}_T)$ *yagona yechimi mavjud.*

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo'yilgan teskari masala yechimining mavjud va yagonaligi o'rganilgan. Bunda,

$$\int_0^l \omega\,(x)u(x,t)dx = h(t), \qquad (13)$$

qo'shimcha shartdan foydalanib, $u(x,t)$ va $k(t)$ funksiyalarni aniqlash teskari masalasi tadqiq etiladi. Bu yerda $\omega(x)$, $h(t)$ berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

(6)-(8), (13) masaladan $u(x,t)$ va $k(t)$ funksiyalarni topish masalasiga teskari masala deb ataladi.

(9), (12) ga ko'ra (6)-(8) masalani quyidagi Volterra-Fredgolm integral tenglamasi shaklida yozamiz:

$$u(x,t) = \Phi(x,t) -$$

$$-\delta\int_t^{T+t}\int_0^l G_0\,(x,\xi,\tau)\int_0^{T+t-\tau} k\,(\alpha)u(\xi, T+t-\tau-\alpha)d\alpha d\xi d\tau +$$

$$+\int_0^t\int_0^l G\,(x,\xi,\tau)\int_0^{t-\tau} k\,(\alpha)u(\xi, t-\tau-\alpha)d\alpha d\xi d\tau. \qquad (14)$$

bu yerda

$$\Phi(x,t) = \int_0^l G_0\,(x,\xi,t)\varphi(\xi)d\xi,$$

$$G_0(x,\xi,t) = \frac{2}{l}\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{1+\delta e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 T}}\,e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 t} sin\frac{\pi n\xi}{l} sin\frac{\pi n x}{l}.$$

(14) tenglamani t bo'yicha differensiallab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$u_t(x,t)=\Phi_t(x,t)+\delta\int_0^l G_0\,(x,\xi,t)\int_0^T k\,(\alpha)u(\xi,T-\alpha)d\alpha d\xi-$$
$$-\delta\int_t^{T+t}\int_0^l G_0\,(x,\xi,\tau)k(T+t-\alpha)u(\xi,0)d\alpha d\xi d\tau-$$
$$-\delta\int_t^{T+t}\int_0^l G_0\,(x,\xi,\tau)\int_0^{T+t-\tau} k\,(\alpha)u_t(\xi,T+t-\tau-\alpha)d\alpha d\xi d\tau+ \qquad (15)$$
$$+\int_0^t\int_0^l G\,(x,\xi,\tau)k(t-\tau)u(\xi,0)d\xi d\tau+$$
$$+\int_0^t\int_0^l G\,(x,\xi,\tau)\int_0^{t-\tau} k\,(\alpha)u_t(\xi,t-\tau-\alpha)d\alpha d\xi d\tau.$$

Faraz qilaylik, $\omega(0)=\omega(l)=0$ shartlar bajarilsin. (6) tenglikni ikkala tomonini $\omega(x)$ ga ko'paytirib, x bo'yicha 0 dan l gacha integrallaymiz. Sodda almashtirishlardan so'ng, quyidagi integral tenglamani olamiz:

$$k(t)=\frac{h''(t)}{|h(0)|}-\frac{1}{|h(0)|}\int_0^l \omega''(x)u_t(x,t)\,dx-\frac{1}{|h(0)|}\int_0^t k\,(\tau)h_t(t-\tau)d\tau. \qquad (16)$$

(14) – (16) birgalikda $\big(u(x,t),u_t(x,t),\ k(t)\big)$ noma'lumlarga nisbatan yopiq integral tenglamalar sistemasini tashkil etadi. Masala yechimining mavjud va yagonaligi uchun quyidagi teorema o'rinli:

3-teorema. *Faraz qilaylik,*

1. $\varphi(x)\in C^2[0,l],\ \varphi'''(x)\in L_2(0,l), \varphi(0)=\varphi(l)=\varphi''(0)=\varphi''(l)=0,$

2. $h(t)\in C^2[0,T], h(0)\neq 0,\ \delta\geq 0,$

3. $\omega(x)\in C^2[0,l], \int_0^l \omega\,(x)\varphi(x)dx=h(0)+\delta h(T),\quad \omega(0)=\omega(l)=0$

shartlar bajarilsin. U holda shunday yetarlicha kichik $T_0>0, l_0>0$ *sonlari topilib,* $T\in(0,T_0), l\in(0,l_0)$ *da (6) – (8) va (13) masalaning* $u(x,t)\in C^{2,1}(D_T)\cap C\big(\overline{D}_T\big)$, $k(t)\in C[0,T]$ *yagona yechimi mavjud.*

Uchinchi paragrafda (6)-(8) masala va ushbu

$$u(x_0,t)=h(t) \qquad (17)$$

qo'shimcha shartdan foydalanib, $u(x,t)$ va $k(t)$ funksiyalarni aniqlash teskari masalasi tadqiq etilgan.

4-teorema. *Faraz qilaylik,* $\varphi(x)\in C^4[0,l], h(t)\in C^2[0,T], h(0)\neq 0, \delta\geq 0$ *bo'lsin va* $\varphi(0)=\varphi(l)=\varphi''(0)=\varphi''(l)=0,\quad h(0)+\delta h(T)=\varphi(x_0)$ *kelishuvchanlik shartlari bajarilsin. U holda shunday yetarlicha kichik* $T^*\in(0,T)$ *son topilib, (6) – (8), (17) teskari masalaning* $u(x,t)\in C^{4,1}(D_{T^*})\cap C(\overline{D}_{T^*})$, $k(t)\in C[0,T^*]$ *yagona klassik yechimi mavjud.*

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi "**Nolokal boshlang'ich va nolokal chegaraviy shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun teskari masala"** deb nomlangan bo'lib, to'g'ri va teskari masala yechimi uchun mavjudlik va yagonalik shartlari olingan.

Ushbu

$$u_t - u_{xx} = \int_0^t k(t-\tau)u(x,\tau)d\tau, \quad (x,t) \in D_T, \tag{18}$$

$$u(x,0) + \delta u(x,T) = \varphi(x), \ \ x \in [0,l], \tag{19}$$

$$u_x(0,t) - hu(0,t) = \psi_1(t), \ \ u_x(l,t) + hu(l,t) = \psi_2(t), \ \ t \in [0,T], \tag{20}$$

$$\int_0^l \omega(x)u(x,t)dx = p(t), \tag{21}$$

masaladan $u(x,t)$, $k(t)$ funksiyalarni aniqlash masalasini qaraymiz, bu yerda $\delta \geq 0$, $h > 0$ berilgan sonlar, $\varphi(x), \omega(x), p(t), \psi_1(t), \psi_2(t)$ berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

2-ta'rif. *Agar* $\big(u(x,t); k(t)\big)$ *funksiyalar quyidagi:*

1. D_T *sohada* $u(x,t)$ *funksiya va uning hosilalari* u_t, u_x, u_{xx} *uzluksiz bo'lsin;*
2. *(18) tenglama va (19)-(21) shartlarni klassik ma'noda qanoatlantirsin;*
3. $k(t)$ *funksiya* $[0,T]$ *oraliqda uzluksiz bo'lsin*

shartlarni qanoatlantirsa, u holda $\big(u(x,t); k(t)\big)$ *funksiyalar juftligiga (18)-(21) masalaning klassik yechimi deyiladi.*

(18)-(21) teskari masala quyidagi

$$\vartheta_t = \vartheta_{xx} + \int_0^t k(t-\tau)\vartheta(x,\tau)d\tau + \int_0^t k(t-\tau)\nu(x,\tau)d\tau - \nu_t(x,t), \tag{22}$$

$$\vartheta(x,0) + \delta\vartheta(x,T) = \phi(x) \quad 0 \leq x \leq l, \tag{23}$$

$$\vartheta_x(0,t) - h\vartheta(0,t) = 0, \ \ \vartheta_x(l,t) + h\vartheta(l,t) = 0, \tag{24}$$

$$\int_0^l \omega(x)\vartheta(x,t)dx = p(t) - \int_0^l \nu(x,t)\omega(x)dx, \tag{25}$$

yordamchi masalaga olib kelinib, $\vartheta(x,t), k(t)$ funksiyalarni topish talab qilinadi. Bu yerda $u(x,t) = \vartheta(x,t) + \nu(x,t)$, $\nu(x,t) = (\alpha_1 x + \beta_1)\psi_1(t) + (\alpha_2 x + \beta_2)\psi_2(t))$, $\alpha_1 = \frac{1}{2+hl}$, $\beta_1 = -\frac{1+hl}{(2+hl)h}$, $\alpha_2 = \frac{1}{2+hl}$, $\beta_2 = \frac{1}{h(2+hl)}$, $\phi(x) = \varphi(x) - \nu(x,0) - \delta\nu(x,T)$.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida (22)-(24) to'g'ri masalaning $\vartheta(x,t) \in C^{2,1}(D_T) \cap C^{1,0}\big(\overline{D}_T\big)$ klassik yechimini topish masalasi tadqiq qilingan.

(22)-(24) masala yechimni

$$\vartheta(x,t) = \sum_{n=0}^{\infty} X_n(x)\vartheta_n(t) \tag{26}$$

ko'rinishda izlaymiz, bu yerda, $X_n(x)$ xos funksiyalar va ular $L_2(0,l)$ da to'la ortonormal sistema tashkil etadi, $\vartheta_n(t) = (\vartheta, X_n)$.

(22), (23) tengliklarni $X_n(x)$ ga ko'paytirib $(0,l)$ da integrallab quyidagi masalani olamiz:

$$\vartheta'_n(t) + \lambda_n^2\vartheta_n(t) = f_n(t), \tag{27}$$

$$\vartheta_n(0) + \delta\vartheta_n(T) = \phi_n, \quad n = 1,2,\ldots, \tag{28}$$

bu yerda

$$\phi_n = \big(\phi, X_n(x)\big), \quad f_n = \big(f, X_n(x)\big),$$

$$f(x,t)=\int_0^t k(t-\tau)\vartheta(x,\tau)d\tau+\int_0^t k\,(t-\tau)\nu(x,\tau)d\tau-\nu_t(x,t).$$

Har bir tayinlangan $n\in\mathbb{N}$ da (27), (28) masalaning yechimi quyidagi Volterra-Fredgolm integral tenglamasiga olib kelinadi

$$\vartheta_n(t)=\frac{e^{-\lambda_n^2 t}}{\psi_n(T)}\phi_n+e^{-\lambda_n^2 t}\int_0^t e^{\lambda_n^2\tau}\left(\int_0^\tau k(\tau-\alpha)\nu_n(\alpha)\,d\alpha-\nu_n'(\tau)\right)d\tau-$$

$$-\frac{\delta e^{-\lambda_n^2 t}}{\psi_n(T)}\int_0^T e^{-\lambda_n^2(T-\tau)}\left(\int_0^\tau k(\tau-\alpha)\nu_n(\alpha)\,d\alpha-\nu_n'(\tau)\right)d\tau+$$

$$+e^{-\lambda_n^2 t}\int_0^t e^{\lambda_n^2\tau}\int_0^\tau \vartheta_n(\alpha)\,k(\tau-\alpha)d\alpha d\tau-$$

$$-\frac{\delta e^{-\lambda_n^2 t}}{\psi_n(T)}\int_0^T e^{-\lambda_n^2(T-\tau)}\int_0^\tau \vartheta_n(\alpha)\,k(\tau-\alpha)d\alpha d\tau.$$

3-lemma. *Ixtiyoriy $0<t\le T$ da quyidagi tengsizliklar o‘rinli:*

$$|\vartheta_n(t)|\le C_1e^{-\lambda_n^2 t}(|\phi_n|+\|\nu_n\|+\|\nu_n'\|),\ \ t\in[0,T],$$

$$|\vartheta'_n(t)|\le \lambda_n^2e^{-\lambda_n^2 t}C_1(|\phi_n|+\|\nu_n\|+\|\nu_n'\|),$$

bu yerda

$$C_1=\left(1+\|k\|T^2e^{\|k\|T^2}\right)\left(1+\frac{\delta\|k\|T^2}{1-p_2}\left(1+\|k\|T^2e^{\|k\|T^2}\right)\right),$$

$$\|k\|=\max_{t\in[0,T]}|k(t)|.$$

Ushbu paragrafning asosiy natijasi (22)-(24) masala yechimining mavjud va yagonalik teoremasidan iborat.

5-teorema. *Faraz qilaylik, $\varphi(x)\in C[0,l]$, $\varphi'(x)\in L_2(0,l)$, $k(t)\in C[0,T]$, $\psi_1(t),\ \psi_2(t)\in C^1[0,T]$, $\delta\ge 0$, $\varphi'(0)-h\varphi(0)=\psi_1(0)+\delta\psi_1(T)$, $\varphi'(l)+h\varphi(l)=\psi_2(0)+\delta\psi_2(T)$ shartlar bajarilsin. U holda*

$$\delta\|k\|T^2\left(1+\|k\|T^2e^{\|k\|T^2}\right)<1$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi T lar uchun (22)-(24) to‘g‘ri masalaning $\vartheta(x,t)\in C^{2,1}(D_T)\cap C^{1,0}(\overline{D}_T)$ yagona yechimi mavjud.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida (22)-(25) teskari masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

6-teorema. *Faraz qilaylik,*

1. $\varphi(x)\in C^2[0,l],\varphi'''(x)\in L_2(0,l)$;

2. $\psi_1(t),\ \psi_2(t)\in C^1[0,T],\varphi'^{(0)}-h\varphi(0)=\psi_1(0)+\delta\psi_1(T)$,
$\varphi'(l)+h\varphi(l)=\psi_2(0)+\delta\psi_2(T)$;

3. $p(t)\in C^2[0,T],p(0)\neq 0$;

4. $\omega(x)\in C^2[0,l],\delta\ge 0,\omega'(0)=h\omega(0),\ \ \omega'(l)=-h\omega(l)$,
$p(0)+\delta p(T)=\int_0^l\omega\,(x)\varphi(x)dx$

shartlar bajarilsin. U holda (22) – (25) teskari masalaning $\vartheta(x,t)\in C^{2,1}(D_T)\cap C^{1.0}(\overline{D}_T)$, $k(t)\in C[0,T]$ yagona yechimi mavjud.

XULOSA

Dissertatsiyada integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich-chegaraviy shartli to‘g‘ri va teskari masalalar tadqiq qilingan. To‘g‘ri masalada integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich-chegaraviy, nolokal boshlang‘ich-nolokal chegaraviy shartli masalalarning korrektligi o‘rganilgan. Teskari masalada o‘ng tomoni o‘rama ko‘rinishda bo‘lgan issiqlik tarqalish tenglamasidan yadroni aniqlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Ushbu masalalar ikkinchi tur Volterra-Fredgolm tipidagi integral tenglamalar sistemasiga keltirib tadqiq qilingan. To‘g‘ri va teskari masalalarning yechimi mavjud va yagonaligi haqidagi teoremalar Shauder prinsipi, qisqartirib akslantirishlar prinsipi va integral tengsizliklar nazariyasidagi teoremalar orqali isbotlangan. Asosiy tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

chegaralangan sohada integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo‘yilgan nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;

integro–differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun integral had qatnashgan nolokal boshlang‘ich va chegaraviy masala yechimining mavjud va yagonaligi ko‘rsatilgan;

integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun nolokal boshlang‘ich-chegaraviy masaladan yadroni aniqlashning teskari masalasi bir qiymatli yechiluvchanligi isbotlangan;

nolokal boshlang‘ich va nolokal chegaraviy shartli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan yadroni aniqlash teskari masalasi yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan.

SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 AT SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

BUKHARA STATE UNIVERSITY

ATOEV DILSHOD DILMURODOVICH

NONLOCAL INVERSE PROBLEMS FOR AN INTEGRO-DIFFERENTIAL HEAT EQUATION

01.01.02 – Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION
for the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

Bukhara – 2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2023.4PhD/FM946.

The dissertation was performed at the Bukhara State University.

The abstract of dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the website (www.samdu.uz) and in the website «ZiyoNet» Information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific superviser:	**Durdiev Durdimurod Kalandarovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Ishankulov Tolib** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Safarov Jurabek Shakarovich Doctor of Physical and Mathematical Sciences
Leading organization:	**Urganch State University**

Defense will take place «____» ____________2025 at _____ at the meeting of Scientific Council number DSc.03/30.12.2019.FM.02.01 at Samarkand State University named after Sharof Rashidov. (Address: University Boulevard 15, Samarkand city, 140104, Uzbekistan, Phone number: (+99866)231-06-32, fax: (+99866)235-19-38, e-mail: patent@samdu.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Samarkand State University named after Sharof Rashidov (is registered №___) (Address: University Boulevard 15, Samarkand city, 140104, Uzbekistan, Phone number: (+99866)231-06-32).

Abstract of dissertation sent out on «____» _______________2025 year

(Mailing report № ____ on «____» ___________ 2025 year)

A.S.Soliev
Chairman of scientific council on award of scientific degree, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, professor

A.M.Khalkhuzhaev
Scientific secretary of scientific council on award of scientific degree, Doctor of Physical and Mathematical Sciences

A.B.Khasanov
Chairman of Scientific seminar under scientific council on award of scientific degree, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, professor

INTRODUCTION (Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Actuality and demand of the theme of the dissertation. In the world, many scientific and applied researches conducted globally lead to the investigation of integro-differential partial differential equations, as well as direct and inverse problems formulated for them. Inverse problems have permeated fields, including thermal physics, quantum mechanics and optics, medicine, computer graphics, and artificial intelligence, as well as in all areas of modern science. To find the solution to a direct problem in mathematical physics, it is necessary to give the coefficients of the equation, the domain boundary, and the initial and boundary conditions. However, in practice, the coefficients of the equation are not always available. Additionally, the solution to the problem depends not only on the initial and boundary conditions but also on some other properties within the medium. In this case, solving the problem leads to the study of nonlocal inverse problems for integro-differential heat propagation equations. As the methods of solving such problems are not fully formed, for this reason research in this direction is one of the important actual tasks.

In the world scientific research is underway worldwide aimed at studying processes modeled by integro-differential equations of heat spread and inverse problems, which are one of the rapidly developing fields of mathematical physics. In this area, priority is given to research aimed at proving the existence and uniqueness of a correct and inverse solution to the problem for the integro-differential heat spread equation with non-local initial boundary conditions. It is also important to control the processes of heat spread and ensure an even distribution of heat throughout the environment, while these processes are modeled using a non-local equation of conditional heat spread. Therefore, the development of research on the correctness of the correct and inverse problems posed for the integro-differential heat spread equation with a non-local initial boundary condition is considered one of the urgent tasks.

In our republic, through applied and fundamental sciences, large-scale research is being conducted, which has both theoretical and practical significance, in particular, large-scale measures are being taken to prove the existence and uniqueness of solutions to correct and inverse problems for the nonlocal conditional integro-differential equation of heat spread and the application of the results obtained in practice. The main tasks and activities of mathematical science are defined as conducting scientific research at the level of international standards in the priority areas of the disciplines “Algebra and its applications, differential equations and their applications, nonlinear systems, dynamical systems and their applications, mathematical modeling, stochastic analysis, biomedical informatics, computational mathematics[1].” When performing this task, it is of great scientific importance to find

[1] Resolution PQ-4387 of the President of the Republic of Uzbekistan, dated July 9, 2019, titled "On State Support for the Further Development of Mathematics Education and Sciences, as well as Measures to Fundamentally Improve the Activities of the V.I. Romanovsky Institute of Mathematics of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

the conditions for the correctness of non-local inverse problems for heat spread equations in the form of a right winding.

